

Mazkur darsliklarda bokschilarni o‘qitish va tayyorlash bo‘yicha hozirgi zamon ilm va amaliyot yutuqlariga tayanadigan zamonaviy bilimlar umumlashtirilgan. Mualliflar har bir bobni bayon etishda o’zlarining bilim va tajribalariga asoslanganlar.

Darsliklarda jismoniy tarbiya institutlari boks ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislarni o‘qitish kursi mazmunini tashkil qiluvchi bokschilarning sport pedagogik mahoratini oshirish qaratilgan asosiy bo‘limlari bayon qilingan.

Darsliklarda quyidagi boblar berilgan; “Bokschini o‘rgatish va mashq qildirish tamoyillari, uslublari, vositalari” “Bokschining jismoniy sifatlarini tarbiyalash”; “Boks texnikasi”; “Boks taktikasi”; “Boks sport turi bo‘yicha etakchi mamlakatlarning tayyorgarlik harakatlari texnikasining o‘ziga xos xususiyatlari”; “Kichik sport razryadiga ega bokschilarni o‘rgatish va mashq qildirish”; “Yuqori malakali bokschilarni tayyorlash”; “Psixologik tayyorgarlikni mazmuni va yo‘nalishi”; “Boksdan musobaqalar va musobaqa faoliyati” va “Xalqaro boks assotsiatsiyasi (AIBA) texnik qoidalari”.

Darsliklar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “boks” ixtisosligida tahsil oluvchi talabalari, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakulteti talabalari, va “boks” sport turi sohasidagi murabbiylarga mo‘ljallangan.